

SHARQSHUNOSILK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

1

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2023



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan
qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeve	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abdulhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayeve	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyev	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
S. Kurayim	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

Muxtarov T. Ибн Баттута – мусульманский Марко Поло	5
Yuldasheva H. Milliy identlikni shakllantirish va rivojlantirishda arab ma'rifatparvarlarining roli	14
Saydganiyeva G. Navoiyxonlik va Navoiy ijodiy an'alarining Qo'qon adabiy muhiti rivojidadagi o'rni	23

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Hamidov X. “Anor” hikoyasi turk va rus tillarida	33
Zakirova U. Ingliz o'zlashmalarining urdu tiliga kirib kelishida tarixiy omillarning ahamiyati	52
Berdiyev U. Xitoy tilidagi paremiologik birliklarda “Odam” konseptining talqini	60
Sayed Mohamed Ahmed Korayem. Call for the use of intermediate language in teaching Arabic under the Corona pandemic, its foundations and problems	70
Abbasova D. The comparative study on personal pronouns in Korean and Uzbek “Focusing on Uzbek learners”	79
Badalbayev D. Hozirgi xitoy tilida frazeologizmlar va ularning o'ziga xos jihatlari ...	89
Fayziyeva A. Vatan konseptining lingvomadaniy xususiyatlari	91
Nazrullayeva G. “Bir qizga ming oshiq” romanidagi ayol va erkaklar nutqining o'ziga xosliklari va uning tarjimada berilishi	99

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Shokirova H. Alisher Navoiy “Xamsa”sining XIX asrda kitobat qilingan ba'zi qo'lyozma nusxalari	106
Malikov A. Alisher Navoiyning arabiy misrali g'azallar	119
Turdixojayeva M. Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimgi farg'ona shaharlarining o'rganilishi va turizm salohiyati	135



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Saliyeva M. Markaziy osiyo xalqlari madaniyatining shakllanishida ijtimoiy kommunikatsiya.....	144
Davlatova S. O'zbekiston va Xitoy: millatlararo munosabatlar sohasida hamkorlikning yangi davri.....	157
Shazamanov Xitoy Xalq Respublikasi: fan-texnika yuksalishi taraqqiyot omili	170
Ibragimov Sh. Эволюция установление и развитие дипломатических отношений между Королевством Саудовская Аравия и Республикой Узбекистаном.....	184
Sadibaqosev H. Jahon siyosatida aqsh-xitoy raqobati: global boshqaruv, diplomatiya, xavfsizlik va iqtisodiy munosabatlar.....	193
Arapov Sh. Tashqi siyosatda "Raqamli diplomatiya" fenomeni va uni tadqiq etish metodologiyasi.....	208
Muydinov D. Yevropa ittifoqining siyosiy jarayonlariga migratsiyaning ta'siri.....	218
Mamadjonov A. Yumshoq va aqlli kuch: zamonaviy xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosat strategiyalari sifatida.....	227

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

Izzetova E. Концептуально-методологический анализ трансформации китайской философской мысли: конфуцианство – неоконфуцианство	237
Raxmonov A. Abu Yusuf va fiqh ilmi.....	245



ZAKIROVA UMIDA

O'qituvchi, TDSHU

Ingliz o'zlashmalarining urdu tiliga kirib kelishida tarixiy omillarning ahamiyati

Annotatsiya: O'zlashma so'zlar lug'at tarkibidagi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, tilning lug'at boyligi va jozibadorligi qanchalik boy va xilma-xil ekanligini ko'rsatuvchi muhim bo'lgan belgilardan biri sanaladi. O'zlashma so'zlar zamon talabi bilan kishilarning so'z ma'nolarini har tomonlama to'la va mukammalroq ochishga urinishdan kelib chiqadi. Urdu tili lug'at boyligi ham o'zlashma so'zlarga juda boy bo'lib, har bir so'zni to'g'ri va o'rnida qo'llay bilish muammolari urdu tili o'rganuvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi, turli uslubiy-ma'noviy xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. O'zlashma so'zlar zamon talabi bilan kishilarning so'z ma'nolarini har tomonlama to'la va mukammalroq ochishga urinishdan kelib chiqadi. Tanlangan mavzu dolzarbligini ta'kidlagan holda shuni aytish kerakki, hozirgi kunda ingliz tili Pokistonda ikkinchi rasmiy til maqomini olgan millatlararo muloqat tili sanaladi. Ingliz tilining bu darajada muhim tilga aylanishining ma'lum sabablari bor: savdo va iqtisodiy munosabatlarning kengayishi; Amerika Qo'shma Shtatlarining jahon iqtisod va siyosatida o'rni; yangi informatsion va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, Internet global tarmog'ining paydo bo'lishi va boshqalardir. Shunday bir sharoitlarda butun dunyodagi kabi Pokistonda ham ingliz tilini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Pokiston va Hindiston ommaviy axborot vositalari urdu va hind tillarida ingliz tilining globallashtiruviga asos bo'ladi. Masalan, ommaviy axborot vositalari orqali "reporter", "police", "cricket" kabi leksemalar keng tarqalgan bo'lib, inglizcha so'zlashuv so'zlarining ko'pi urdu tili leksikasiga juda tez sur'atda kirib bormoqda. Shuning natijasi o'laroq, ushbu tadqiqot davomida urdu tiliga kirib kelgan ingliz o'zlashma so'zlarining salmoqli qismini kuzatgan holda gazeta, jurnal, maqolalar, online saytlarda ularni semantik va strukturaviy taraflama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: so'z o'zlashish jarayoni, o'zlashma so'zlar, tarixiy omillar, ingliz mustamlakasi, milliy til, bilingvizm, ijtimoiy jarayonlar, sharq va g'arb.

Аннотация: Заимствованные слова являются одной из основных категорий словарного запаса и считаются одним из важных показателей того, насколько богат и разнообразен словарный запас и привлекательность языка. Заимствованные слова возникают в результате попыток людей более полно и совершенно раскрыть значения слов. Словарный запас урду также очень богат заимствованными словами, и проблемы знания того, как правильно и на своем месте использовать каждое слово, являются проблемой для изучающих язык урду. Могут быть допущены стилистические ошибки. Заимствованные слова возникают в результате попыток людей более полно и совершенно раскрыть значения слов. Подчеркивая актуальность выбранной темы, следует сказать, что сегодня английский язык является вторым официальным языком международного общения в Пакистане. Есть определенные причины, по которым английский стал таким важным языком: расширение торгово-экономических отношений, роль Соединенных Штатов Америки в мировой экономике и политике, развитие новых информационных и компьютерных технологий, появление глобальной сети



Интернет и т.д. В таких условиях в Пакистане, как и во всем мире, возрастает интерес к изучению английского языка.

Пакистанские и индийские СМИ являются основой глобализации английского языка в языках урду и хинди. Например, такие лексемы, как «репортер», «полиция», «крикет», широко распространены в средствах массовой информации и многие английские разговорные слова очень быстро входят в лексикон урду. В ходе этого исследования было обнаружено значительное количество английских заимствований, вошедших в язык урду. Важно проанализировать эти заимствованные слова с семантической и структурной точки зрения, встречающиеся в газетах, журналах, статьях и интернет-сайтах.

Ключевые слова: процесс заимствования, заимствованные слова, исторические факторы, английский колониализм, национальный язык, двуязычие, социальные события, восток и запад.

Annotation: Borrowings are one of the main categories of the vocabulary and are considered one of the important indicators of how rich and diverse the vocabulary and appeal of a language is. Borrowed words arise from people's attempts to reveal the meanings of words in a more complete and perfect way. Urdu vocabulary is also very rich in borrowed words, and the problems of knowing how to use each word correctly and in its place are a challenge for Urdu language learners. mental mistakes can be made. Borrowed words arise from people's attempts to reveal the meanings of words in a more complete and perfect way. Emphasizing the relevance of the chosen topic, it should be said that today English is the second official language of international communication in Pakistan. There are certain reasons why English has become such an important language: the expansion of trade and economic relations; The role of the United States of America in the world economy and politics; the development of new information and computer technologies, the emergence of the Internet global network, etc. In such conditions, interest in learning English is increasing in Pakistan as well as in the whole world.

Pakistani and Indian media, Urdu and Hindi are the basis for the globalization of English. For example, lexemes such as "reporter", "police", "cricket" are widely spread through the media, and many English colloquial words are entering the Urdu lexicon very quickly. The study revealed a significant number of English loanwords included in the Urdu language. It is important to analyze these loan words from a semantic and structural point of view, found in newspapers, magazines, articles and Internet sites.

Keywords: The process of loaning, loan words, historical factors, English colonialism, national language, bilingualism, social processes, east and west.

Mamlakatimizda ilm-fanning bir nechta yoʻnalishi tanlab olinib, alohida eʼtibor bilan rivojlantirilmoqda. Soʻnggi yillarda chet tillarini rivojlantirish ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. Oʻzbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Shuning uchun joylarda chet tillarini oʻrganishga yetarli sharoit yaratish va uni ommalashtirish, barcha rahbarlarning asosiy vazifasi boʻlishi lozimligi aytiladi. Zero, "Sharqshunoslik sohasida kadrlar



tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasining prezidenti Sh. Mirziyoevning qaroriga binoan sharq tillarini o'rganish va kadrlarni yetishtirishga yanada katta e'tibor qaratilmoqda. Bular:

- Sharq mamlakatlarining tillari, tarixi, madaniyati, moddiy va ma'naviy merosi, iqtisodiyoti, siyosati, xalqaro maydondagi nufuzi, ularning zamonaviy antropologiya va etnologiyasi, tarjimashunoslik, shuningdek, turizm va gid hamrohligi sohalarida zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, mehnat bozori uchun raqobatbardosh bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

- Sharq mamlakatlarining rivojlanish omillari, ulardagi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, sharq madaniyati va merosi, qadimiy yodgorlik va qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rganish, mazkur yo'nalishda ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash hamda mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish,"¹-kabilardir.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida sharq tillaridan biri Pokiston Islom Respublikasining davlat tili va Hindistonning mintaqaviy tillaridan biri bo'lgan - urdu tilining ham rivojlanish bosqichlarini tarixiy va ilmiy jihatdan o'rganish muhimdir. Ushbu maqolani yoritishda ko'plab tilshunos olimlarning ilmiy maqolalari o'rganib chiqildi, shuningdek urdu tilshunosligiga o'zlashgan so'zlar qanday kirib kelgani va uning tarixiy omillari va natijalari tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar o'z ichiga rus, ingliz va urdu tilidagi maqola, gazeta va jumallarni oladi. Muhim adabiyotlar qatorida quyidagi mualliflar tomonidan qilingan ilmiy ishlar o'rganib chiqildi: T.Xolmirzayevning "Влияние английского на урду в системе языковой глобализации", Begizova Z.B.ning "Hindiy tilida ingliz tili o'zlashmalari", E.Ochilovning "Badiiy tarjima masalalari", Q.Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari", Rosenthal D.E., Telenkova M.A.ning "Dictionary of linguistic terms", Chen Yupingning "Foreign-language borrowing in modern Russian", Володарская Э.Ф. "Заимствование как отражение русско-английских контактов", Крысин, Л.П. "Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике"lar ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, dunyo tillari orasida sof tilning o'zi yo'q. Til millatlarning madaniyati va ma'naviyati bilan aloqadordir. Tillarning o'zaro boshqa tillar bilan aralashishi, birining ikkinchisiga ta'sir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda me'yoriy, me'yordan past va me'yordan ortiq ta'siri ko'zga tashlanib, so'z o'zlashishining me'yordan past va me'yordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida ma'lum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki so'z o'zlashtirish masalasida tilshunoslar tomonidan mushtarak va qat'iy to'xtamga kelingani yo'q. Qariyb 300 yildirki, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, so'zlarning bir tildan

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son qarori.



ikkinchi tilga o'zlashish sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganib kelinmoqda. Dunyodagi rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko'pmi o'zlashgan so'zlar, iboralar uchrashi, hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari avvalo tilshunoslarning, qolaversa, tilga e'tiborli bo'lgan har bir kishining ham diqqatini o'ziga jalb qiladi.

XIX-XX asrda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o'zgarishlar tilda ham o'z aksini bera boshladi. Bu davr so'zlarning o'zlashish va so'zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo'ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, urdu tiliga nafaqat inglizcha so'zlar, balki u til orqali ko'plab fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so'zlar kirib keldi.

XV asr oxirida bir necha marta urinishlardan so'ng, yevropaliklar Hindiston orqali dengiz yo'lini ochdilar. Shu davrdan boshlab, ularning bu mamlakat bilan aloqalari yildan-yilga ortib bordi. XVI-XVII asrlarda esa Portugallar Hindistonda yetakchi rol o'ynagan edi. Biroq, portugaliyaliklar inglizlar ta'sirida asta-sekin chiqib ketishga majbur bo'ldilar, ular tez orada Hindiston bilan barcha dengiz savdosini monopoliyaga aylantirdilar. Inglizlar birinchi navbatdagi va eng muhim ishi qirg'oqbo'yi hududlariga, sharqda - Ganga deltasida va g'arbda - hozirgi Mumbay hududida joylashish edi. Shu sababli ular mamlakatning eng muhim iqtisodiy zo'nalarini o'z nazoratiga oldilar va 1600 yilda tashkil etilgan Sharqiy Hindiston kompaniyasining Hindistondagi barcha tashqi savdosini tortib oldilar.

XVIII asrning o'rtalarida Angliya va Fransiya o'rtasida Hindistonni talon-taroj qilish uchun kurash avj oldi. Bu kurashda g'alabani Angliya qo'lga kiritdi va mamlakatni boshqara boshladi. 18-asr o'rtalarida boshlangan urush Hindistonni 19-asrning 40-yillari oxirida yakuniga yetdi. Mamlakatning Britaniya mustamlakasiga aylanishi unda ingliz tilining keng tarqalishiga olib keldi.

1715-yilda Madrasda Sant Mariya maktabi ochildi, 1725-yilda muxolifotchilar hindlar va musulmonlar uchun 17 ta maktab, nasroniylikni qabul qilgan hindular uchun to'rtta maktab ochdilar. 1727 yilda Madrasga maxsus protestant missiyasi keldi va u o'z oldiga ingliz tilini har tomonlama keng tarqatish vazifasini qo'ydi. 1804 yilda London Muxolifotchilar Jamiyati Hindiston va Bengaliya janubida bir qancha ingliz maktablarini tashkil qildilar. 1820 yilda Kalkuttada yepiskoplar kolleji ochildi.

Muxolifotchilar boshchiligidagi ingliz maktablari Ost Indiya kompaniyasidan katta yordam oladi. Ushbu kompaniya vakili Madras gubernatori Charlz Trevelyan ingliz tilida ta'lim olgan va Britaniya imperiyasi ishlarida faol ishtirok etgan hindistonlikdan ko'ra ko'proq inglizga o'xshashligini ta'kidlaydi. Asta-sekin Hindistonda mustamlakachilarning o'zlari uchun ham, ingliz tilini allaqachon



o'zlashtirishga muvaffaq bo'lgan hindlar uchun ham mo'ljallangan matbuot ingliz tilida rivojlana boshladi. 1870 yildan boshlab Hikki tomonidan nashr etilgan Bengal gazetasi ingliz tilida nashr etila boshlandi. Keyingi yillarda ingliz tilidagi yillik nashrlar soni sezilarli darajada oshdi. Mamlakatda bir qancha ilmiy yig'ilishlar tashkil etildi. Bunday jamiyatlarning ishi ham ingliz tilida olib borilgan edi.

Hindistonni davlat xizmatlari, politsiya, audit va buxgalteriya xizmatlari, ta'lim, daromadlar va yuridik xizmatlar tark etayotgan edi. Bularning barchasi uchun ingliz tilini biladigan ko'p sonli xodimlar kerak edi, chunki bu erda barcha ishlar ingliz tilida olib borilgan. Shunday qilib, ingliz tili Hindistonda ish yuritish sohasida monopol pozitsiyani egalladi. Ingliz tilini biladigan odamlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bordi. Shuning uchun ingliz tilio'rgatish targ'ibotini kengaytirish choralari ko'rilga boshlandi. Ingliz tili darslari Kalkutta madrasasida, shuningdek, Banaras Sanskrit kolleji va Agra kollejida hind tilida tashkil etildi. Bu qarorlarga baho berilar ekan, taniqli hind jamoat arbobi Govinddas 1927 yil 19 mart kuni shunday ta'kidlagan edi: "Britaniyaliklar o'z davlatlarini mustahkamlash va milliy ma'naviyatimizni yo'q qilish uchun ingliz tilida dars berish siyosatidan foydalanganlar".¹

Xuddi shu 1835- yilda ingliz tili Hindistonning rasmiy tili deb e'lon qilindi. Bu uning asosiy va keng qamrovli ish yuritish tili sifatida rasmiy aloqa sohasida monopol pozitsiyasini egallashiga olib keldi. Birinchi universitetlar 19-asrning 2-yarmi boshlarida Hindistonda, 1858-yilda Kalkutta, Madras va Bombeyda, 1887-yilda hindular hududida Ollohobodda ochilgan. 1917-1922 yillarda universitetlar soni 5 tadan 14 taga ko'paydi.

Vaqt o'tishi bilan Hindistonda ingliz tilida nafaqat ilmiy asarlar, balki badiiy asarlar ham yaratila boshlandi. To'g'ri, ingliz tili hind adabiyoti sohasiga juda oz miqdorda kirib kelgan, ammo hali ham katta avlodning zamonaviy yozuvchilari orasida ingliz tilida o'z asarlarini yaratgan bir qancha mualliflar bor. Ular orasida panjoblik Mulkraj Anand, bengaliyalik Bhabani Bhattacharya, tamillik R.K. Hindlar ingliz tilida she'rlar, romanlar, hikoyalar, insholar va dramalar yaratdilar. Shuning uchun hind adabiyotiga bag'ishlangan alohida asarlarda alohida bo'lim - ingliz tilidagi adabiyot ajratilgan. Memuar adabiyoti va publitsistikasi ingliz tilida ancha rivojlandi. Javaharlal Neruning "Avtobiografiya" va "Hindistonning kashfiyoti" kitoblari ham ingliz tilida yozilgan.

Lekin albatta, hamma hindlar ham inglizlar tuzumiga o'tmagan, hamma ham uning Hindistonda tarqalishiga ergashgan emas. Vatanparvar hindlar Britaniya hukumatiga ham, xususan, hind tilini kamsitishga ham qarshi chiqdilar. Ular o'z kuchlarini birlashtirib, o'z milliy tillarini saqlash va rivojlantirish uchun

¹Govinddas.Hind bhasā andolan, pr. 6.



kurashdilar. “O‘z tili” uchun hurmat hind xalqining milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu kurashning ajralmas qismi edi. Hind tili rivoji uchun gapirgan uning tarafdorlari maxsus jamiyatlar tuzdilar, shu tilda adabiyot va davriy nashrlar ishlab chiqdilar. Ushbu tilning tarqalish hududida hind tilini rivojlantirish uchun kurash birinchi jamiyatni yaratish tashabbuskorlari ikki Banoras talabalari Shyambihari Mishra va Ramparayan Mitralaredi. Jamiyat 1893-yil 16 iyulda Balarasda (sobiq Kashi, hozirgi Varanasi) tashkil topgan. U “Nagarinra-charini sabha” (“Hind tilini tarqatish jamiyati”) nomini oldi. Jamiyatning eng faol a‘zolari Shyamsundardas, Kitorilal Gosvami, Ramnarayan Mitra va Mahavirirasad Dvivedi, Kam Taprasad Guru va boshqalar edi.

Keyingi yillarda hind nashriyotlarining o‘sishi biroz kechikdi. 1929-yilda Ollohobodda “Mitra Prakashan Private Limited” korxonasi faoliyat ko‘rsata boshladi, 1932-yilda esa “Kitobistona” ham shu yerda paydo bo‘ldi. Ammo 1934 yilda nashriyotlar soni sezilarli darajada ko‘paydi. 1936 yilda Dehlida ikkita yangi nashriyot - Bharati Sahitya Mandir va Dehati Pustak Bhandar paydo bo‘ldi. 1938 yilda yana ikkita - Kanpurdagi “Sahitya niketan” va Laknaudagi “Vn-plav karyalai” tashkil etilgan.

1863-yilda tashkil etilgan Ser Sayid Ahmadning ilmiy jamiyati G‘arb fanlari va ilm-fanning tarjimalari va terminologiyasi jihatidan juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatda tarjima qilingan asarlar qirqga yaqin bo‘lib, aksariyati ingliz tilidan urdu tiliga tarjima qilingan asarlar joy olgan.

“1874 yilda Muhammad Husayn Ozod tashabbusi va general polkovnik Balraydning ko‘magi bilan Anjumane Panjob tashkil etildi, uning asosiy maqsadi Sharq she‘riyatini sevgi va mubolag‘aga berilib ketishdan ozod qilish edi. Lekin ko‘plab urdu tilidagi she‘rlar inglizlar qalamiga mansub bo‘lib, tarjimalar ham qilingan edi”.¹

Bu qatorda Mavloni Altaf Husayn Xoli va Mulla Muhammad Husayn Ozod ham bir qancha g‘arb she‘rlarini xususan ingliz tilidan urdu tiliga tarjima qilganlar. 1930-yilgacha urdu she‘riyati va nasri ingliz adabiyoti ta‘sirida bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik boshqa xorijiy tillardan adabiyotlar urdu tiliga tarjima qilingan. Ko‘plab tarjimalar amalga oshirildi. Ingliz she‘riyati ta‘sirida Zafar Ali Xon Tennesonning “Nadi Karag” she‘ri va Vordvortning “Vafa” she‘rini tarjima qilgan. Alloma Iqbol Emersonning “Tog‘ va olmaxon” asarini tarjima qilgan. “Sevgi va o‘lim”, “Jannat bilan vidolashuv”, “Longfello Uilyamning tong xabari”, “Qushlar faryodi” va “Ona timsolini ko‘rish”, Robert Brauningning she‘rlarini urdu tiliga Faiz Ahmad Faiz tarjimasi, Aziz Axmed TS Eliotning “Xarababad” nomi ostidagi asarini tarjima qilgan. Miranji “Sharq va G‘arb qo‘shiqlari” nomi bilan ko‘plab ishlarni urdu tiliga tarjima qilgan. Shu

¹Nisori Ahmad Qureyshi, Urdu tilidagi nasriy tarjimalar an‘anasining qisqacha sharhi, jumladan: An‘ana va san‘at tarjimasi, Islomobod, Muqtadra Qaumi tili, nashr 1985, 12-bet.



tariqa badiiy adabiyotda Xemingueyning fantastika, Mazhar Ahmad, German Melvilning “Mobi Dik” romani Muhammad Hasan Askariy tomonidan urdu tilida chop etilgan. Genri Jamisning “Ledi portreti” kitobi, “Humin Chirag, Humin Parvane” nomi bilan Quratul Ayn Xayder tomonidan tarjima qilingan. Pokiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng qo‘shimchatarjima adabiyotlarga katta ehtiyoj sezila boshlandi va natijada turli muassasalar harakatga kela boshladi. Multandagi Alloma Iqbol nomidagi Open Universitetida D-r. Halid Iqbol ingliz tilidan urdu tiliga tarjima qilinganligi sababli urdu tili va adabiyotida ko‘plab o‘zgarishlar yuz berganini, akademik, ilmiy, she‘riyatda yangi yo‘nalish va qo‘shimchalar qo‘shilganini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Yildan–yilga davlatning rivojlanishi va taraqqiy topishi uning tilshunosligiga ham salmoqli tarzda ta’sir ko‘rsatmay qolmadi va natijada u yerda ikki tillilik ya’ni inglizlar mustamlakasi o‘z izini qoldirdi. Natijada urdu va ingliz tillari rasmiy til sifatida qabul qilindi. Bilingvizm - bu shaxsning yoki jamoaning a’zolarini ikki [tildan](#) samarali foydalanish qobiliyatidir. Dunyo aholisining yarmidan ko‘pi ikki tilli yoki ko‘p tilli: “Yevropaliklarning 56 foizi ikki tilli bo‘lib, Buyuk Britaniyadagi aholining 38 foizi, Kanadada 35 foiz, Qo‘shma Shtatlarda esa 17 foizi ikki tilli”¹dir. **“Bilingvizm** - umuman olganda, odatda ko‘p til biluvchi demakdir. Hozirgi kunda dunyodagi 200 ga yaqin suveren davlatlarda (yoki har bir davlat uchun 25 tilda) taxminan 5000 til ishlatiladi, shuning uchun dunyodagi ko‘plab mamlakatlar fuqarolari ochiq-oydin (ko‘p emas) tillarni bilishni talab qiladilar. Aslida Devid Kristal (1997 yil) dunyodagi bolalarning uchdan ikki qismi bilingvual muhitda o‘tib borishini hisob kitob qilgan bolib, statistika shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida gapiradigan taxminan 570 million odam, 41 foizdan ortiq yoki 235 million ingliz va boshqa tillarda bilingvualdir”². Ayniqsa Pokiston kabi ko‘p tilli mamlakatda bir nechta tillarni o‘rganish eng yaxshi tanlovdir. Pokistonda milliy til urdu tilidir, ammo ingliz tili ham muhim hisoblanib, u yerda biznes, savdo va moliyaviy xizmatlar keng miqyosda rivojlangani uchun va ingliz tili ham biznes dunyosida keng qo‘llanilgani sababli u yerda ikkinchi til sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, Pokistonning ba’zi mintaqalarida kundalik hayotda panjob, sindhi, balochi va pushtu kabi tillar qo‘llaniladi. Pokistonda har bir inson, urdu va ingliz tilini bilishi lozim. Pokistondagi ko‘plab maktab va universitetlar ingliz tilida ta’limni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bu talabalarga yuqori sifatli ta’lim olish imkonini beradi va shu bilan birga ingliz tilida bilimlarini rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi. Ushbu mamlakat madaniyati va an’analarini yaxshiroq tushunish uchun Pokistonning milliy tillarini ham o‘rganishi talab etiladi.

¹ Multicultural America: A Multimedia ensiklopediyasi, 2013

² K. Bhatia va Uilyam R. Ritchi, "Kirish", Bilingualizm qo‘llanmasi, Blackwell, 2006



Yuqorida aytib o‘tilganidek, urdu tiliga o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishi va barcha sohalarga ta’siri asosan inglizlar mustamlakasi natijasida sodir bo‘lgan. Pokistonda milliy til urdu tilidir, ammo ingliz tili ham muhim hisoblanib, u yerda biznes, savdo va moliyaviy xizmatlar keng miqyosda rivojlangani uchun ingliz tili ham biznes dunyosida keng qo‘llanilgani sababli u yerda ikkinchi til sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, Pokistonning ba’zi mintaqalarida kundalik hayotda panjob, sindhi, balochi va pushtu kabi tillar qo‘llaniladi. Pokistondagi ko‘plab maktab va universitetlar ingliz tilida ta’limni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bu talabalarga yuqori sifatli ta’lim olish imkonini beradi va shu bilan birga ingliz tilida bilimlarini rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda mamlakat madaniyati va an‘analarini yaxshiroq tushunish uchun Pokistonning milliy tillarini ham o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til millatning ko‘zgusidir. Bu g‘oyani ko‘plab tilshunos olimlarning ilmiy asarlarida, nazariy qarashlarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, E.F. Volodarskaning aytishicha, o‘zlashma so‘zlar “tillardagi bir tildan boshqa tilga qabul qilinadigan, ular orasidagi tillararo munosabatlar, darajalar va shakllardagi farqlar natijasida qabul qilingan umumiy til xususiyatidir”. Asrlar o‘tishi bilan, vaqt shunchalik tezlashdiki, kechagi so‘z yoki bugungina paydo bo‘lgan yangi narsalarni ma’nosini to‘la anglab ulgurishning iloji bo‘lmayapti. Til bilan aloqa - bu ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta’siri, ularning biri yoki ularning ko‘pchiligining tuzilishi va so‘z birikmalariga ta’sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zlashma so‘zlar shunday so‘zlarki, ular o‘sha tilda so‘zlashuvchilar nutqidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, o‘z ma’nosini saqlab qolgan bo‘lishi yoki o‘zgartirgan bo‘lishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zlashma so‘z boshqa tildan olingan va biz foydalanayotgan so‘zlardir. Urdu tilida “o‘zlashma” so‘zi uchun bir necha xil so‘zlar ishlatiladi. Ular ma’no qirralari, ishlatilish doiralari bilan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni qaysi sohada va qanday hollarda ishlatilishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish nutqni bezashga, hamda tilshunoslik jihatidan so‘zni to‘g‘ri qo‘llay bilishga, uslubiy xatoga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O‘zbekiston, 2016. - B. 13
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
3. Chen Yuping Foreign-language borrowing in modern Russian. – 2020.
4. Musayev Q “Tarjima nazariyasi asoslari”-T., 2005.
5. Rosenthal D.E., Telenkova M.A. Dictionary of linguistic terms. – 2020
6. Xolmirzayev.T.X. Urducho-o‘zbekcha lug‘at. – T.:“Fan”, 2002. – B.439.



7. Баранников А.П. Хиндустани (хинди и урду) - Л., 1934. – С.504.
 8. Бегизова Х.Б. О соотношении английских заимствований и их эквивалентов в языке хинди – /Актуальные проблемы изучения языков Южной Азии/ М., 1987
 9. Бегизова Х.Б. Об английских заимствованиях в хинди. – /Вопросы языкознания/ М., 1976
 10. Володарская, Э. Ф. Заимствование как отражение русско-английских контактов. - Москва: Наука. – 2002., С. 96-118
 11. Халмирзаев Т. Влияние английского на урду в системе языковой глобализации. – Т., 2000
- <https://www.rekhtadictionary.com/>

BERDIYEV UMID

Tayanch doktorant, o'qituvchi, TDSHU

Xitoy tilidagi paremiologik birliklarda “odam” konseptining talqini

Annotatsiya: Maqolada xitoy xalqi milliy mentalteti, tafakkuri, mafkurasini ifoda etuvchi, xalq og'zaki nutqida muntazam qo'llaniladigan maqol va matallarning talqini beriladi. Dunyo tillari xaritasiga nazar tashlanar ekan, jahon xalqlari tillari o'zaro chambarchas bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Xitoy tilidagi paremiologik birliklarni o'zbek tiliga o'girish o'ziga yarasha sermashaqqat va mas'uliyatli mehnat hisoblanadi.

Yer sharining u yoki bu mintaqasida istiqomat qilayotgan xalqlar tevarak muhitga ijtimoiy taluqlilik masalasida tengdirlar. Shuningdek, borliqning inson ongiga ta'siri masalasi ham insonlarning qanday tabiiy va ijtimoiy muhitlarda yashayotganligi bilan bog'liqdir.

Xitoy maqol va matallarining tuzilish formalari tildagi iyeroglifik o'lchovlar bilan me'yorlangan bo'lib, ularda o'ziga yarasha murakabliklar kuzatiladi, jumladan, paremiologiyalar aksariyat qadimgi Venyan til normalari asosida turg'un birikmalar shaklida paydo bo'lgan. Tarkiban ular ikki iyeroglifli, uch iyeroglifli bo'lishi kamroq uchraydi. Ko'pchilik maqollar va matallar asosan to'rt iyeroglifdan tuzilganligi ko'rinadi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiologik birliklar, odam, konsept, inson, empirik bilim, xitoy yozuvi, venyan, bayxua, maqol, matal.

Annotation: The article provides an interpretation of proverbs and sayings that express the national mentality, thinking, and ideology of the Chinese people and are regularly used in the folk speech. Looking at the map of the world's languages, it can be seen that the languages of the world's nations are closely related to each other. Translating paremiological units from the Chinese language into Uzbek is a laborious and responsible work.